**XALQ DEPUTATLARI SHOʻRCHI TUMANI**
**KENGASHINING QARORI**

Shoʻrchi tumani, Mustaqillik koʻchasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль VI-48-86-8-120-K/22 Шўрчи туман ҳокимлиги

**Xalq deputatlari Shoʻrchi tuman Kengashining eskirgan va oʻz ahamiyatini yoʻqotgan qarorlarini oʻz kuchini yoʻqotgan deb topish toʻgʻrisida**

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 sentyabrdagi PF–6075-son “Oʻz ahamiyatini yoʻqotgan qonunchilik hujjatlarini qayta koʻrib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni ijrosini taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

**QAROR QILADI:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 sentyabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021 yil 1 iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va oʻz ahamiyatini yoʻqotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini koʻrish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining eskirgan va oʻz ahamiyatini yoʻqotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (N.Shoyeva) mazkur qarorni rasmiy eʼlon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini taʼminlasin.

4. Mazkur qaror rasman eʼlon qilingandan keyin kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Bo’ronov zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi** **Xudoyberganov B.X**

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman
Kengashining
2022 yil 14 iyuldagi
VI-48-86-8-120-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari tuman Kengashining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari**

**RO‘YXATI**

1. Xalq deputatlari Sho’rchi tuman Kengashining 2016 yil 30 dekabrdagi 87/23-05-sonli Sho’rchi tumani mahalliy budjetining 2017 yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Xalq deputatlari Sho’rchi tumagn Kengashining 2017 yil 31 dekabrdagi 123/35-05-sonli Sho’rchi tuman mahallny budjetining 2018 yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. Xalq deputatlari Sho’rchi tumagn Kengashining 2018 yil 27 dekabrdagi 165/46-05-sonli Sho’rchi tumani maxyalliy budjetning 2019 yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. Xalq deputatlari Sho’rchi tumagn Kengashining 2020 yil 28 dekabrdagi 100/VI-XXV-sonli Sho’rchi tumanining 2021 yilgi mahalliy budjetini tasdiklash to‘g‘risida”gi qarori.